

Surxondaryoda paxta yig'im-terimi mavsumiga start berildi



Vohalik mirishkor bobo dehqonlar, klaster va fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan paxta hosili pishib yetilib, yig'im-terimni boshlash uchun tayyor holga keldi. Bugun vohada milliy boyligimiz bo'lgan paxtani yig'ib-terib olish mavsumiga start berildi.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Qiziriq tumani "Istara" hududidagi "Chori Amirov" oilaviy pudrati paxta dalasida bo'lib, nuroniyalar, qishloq xo'jaligi faxriylari, soha mutasaddilari hamda tuman rahbarlari ishtirokida yig'im-terim mavsumini boshlab berdi.

Qiziriq tumanida joriy yil hosili uchun 7 684 hektar maydonda g'o'za yetishtirilgan bo'lib, tuman mirishkorlari davlatga 26 663 tonna paxta sotishni reja qilishgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)